

Mavzu: Matnga sarlavha qo'yish

Aa Qavat-qavat kōylagi bor,
tugmasi yōq.

karam



Karam – tomorqa malikasi.

Uning vatani O'rta yer dengizi qirg'oqlaridir, ammo ba'zi turlari Xitoyda paydo bo'lgan. Karam odamlar orasida darrov ommalashib ketmagan, asta-sekinlik bilan iste'mol qilinib kelingan. So'ng shifobaxsh oziqaviy xususiyatlari tufayli sevimli sabzavotlar qatoridan o'rin olgan.

Karamning madaniy turlariga gulkaram, oq boshli karam, pekin karami va brokoli kabilar kiradi.

1



1-mashq. O'qing. Matnga mos sarlavha toping.
Ko'chiring.

Karam – mazali va foydali sabzavot ekini. Uni to'rt ming yil avval yetishtira boshlashgan. Karam tarkibida C vitamini mavjud. Bu sabzavotni qaynatilgan, dimlangan va tuzlangan holda iste'mol qilish mumkin.

- Siz karamdan tayyorlangan qanday taomlarni iste'mol qilgansiz?





Sarlavha – matnning nomi.
Sarlavha matn nima haqida ekanligini anglatadi.



2-mashq. O'qing. Gaplarning chegarasini aniqlang.

Biz maktab bog'iga ko'chat o'tqazdik Vali terak ko'chati olib keldi Baxtiyor va Feruza ko'chat o'tqazishda Valiga yordam berishdi men ko'chatga suv quyib turdim qilgan mehnatimizdan hammamiz xursand bo'ldik

- Quyidagi sarlavhalar orasidan matnga mosini tanlang.

1. Maktab bog'i.
2. Ko'chat o'tqazdik.
3. Mehnatning tagi – rohat.



3-mashq. Akmal va Azizaga tayanch so'zlar asosida matn tuzishga yordam bering.





4-mashq. Topishmoqlarning javobini toping.
Tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib,
ko'chiring.

Jo'shi... kuylar akasi,
Raqsga tushar ukasi.

Kundu... kuni o'chiri...,
Tunda yoqa olmaysan.



5-mashq. Gaplarni mazmunan bog'lab matn tuzing.
Sarlavha qo'yib, ko'chiring.

- Tekisliklar, daryolar va tog'lar uni bezab turadi.
- Tarixiy obidalar va zamonaviy binolar yurtimizga yanada ko'rk bag'ishlaydi.
- O'zbekiston juda go'zal diyor.
- Biz Vatanimizni asrab-avaylaymiz.

